


VII. ISTE'MOL BOZORI

Viloyat bo'yicha joriy yilning yanvar-sentabr oylarida chakana savdo tovar aylanmasi 10 640,8 mlrd. so'mni tashkil etib, o'sish sur'ati o'tgan yilning shu davriga nisbatan 110,5 %ni tashkil qildi. Shu jumladan, yirik korxonalarning tovar aylanmasi 949,0 mlrd. so'mni (o'sish sur'ati 139,7 %), kichik tadbirkorlik sub'ektlarining tovar aylanmasi 2 484,8 mlrd. so'mni (4,6 foiz o'sish kuzatildi), cavdo faoliyati bilan shug'ullanadigan jismoniy shaxslar va yakka tartibdagi tadbirkorlar tovar aylanmasi 7 207,0 mlrd. so'mni (9,5 % ga ko'paygan) tashkil etdi.

**Chakana savdo tovar aylanmasi (ovqatlanishni qo'shgan holda) tarkibi, foizda
(2021- yil yanvar-sentabr oylarida)**




2021- yilning yanvar- sentabr oylarida chakana savdo tovar aylanmasi tarkibi davlat va nodavlat shakllari bo‘yicha quyidagicha ifodalanadi.

Nodavlat mulki 10 639,8 mln. so‘mni umumiy chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi 99,99 % ni tashkil qildi.

Chakana savdo tovar aylanmasi hajmida katta ulushga ega bo‘lgan Qarshi shahri 29,9 %, Chiroqchi 9,9 %, Koson 9,8 %, Shahrisabz shahri 8,0 %, Kitob 6,1 % va Qamashi 6,0 % tumanlari hissasiga to‘g‘ri kelgan bo‘lsa, Shahrisabz tumani 3,2 %, Muborak tumani 2,6 %, Dehqonobod tumani 2,5 % va Mirishkor tumani 2,3 % ulush bilan eng past ko‘rsatkichni qayd etdi.

Qashqadaryo viloyatida tuman va shaharlarning jami chakana tovar aylanmasidagi ulushi, foizda






Jumladan, 2021- yilning yanvar- sentabr oylari mobaynida chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida ovqatlanish tashkilotlarining savdo aylanmasi 2,1 % ni tashkil etib, 226,7 mld. soʻmga yetdi yoki oʻtgan yilning mos davriga nisbatan

4,0 % oʼsish kuzatildi. Bunda jami savdo aylanmasining 95,2 % ulushi kichik tadbirkorlik subʼektlari ulushiga toʻgʼri kelmoqda.



**Tumanlarning umumiyligi ovqatlanishdagi
ulushi, foizda**



Umumiy ovqatlanish korxonalarini qo'shgan holda, chakana savdo tovar aylanmasi aholi jon boshiga 3 164,9 ming so'mni tashkil etdi. O'rtacha jon boshiga tovar aylanmasining eng yuqori ko'rsatkichlari Qarshi shahrida (11 346,3 ming so'mni), Shahrisabz shahrida (6 033,9 ming so'mni), Koson tumani (3 545,4 ming so'mni), Muborak tumanida (3 154,8 ming so'mni) kuzatildi.

Chakana tovar aylanmasi umumiyligi (umumiy ovqatlanishni qo'shgan holda)
(2021-yil yanvar-sentabr)


	<i>Jami</i>		<i>Aholi jon boshiga</i>	
	<i>mlrd. so‘m</i>	<i>2020- yil yanvar-sentabrga nisbatan, % hisobida</i>	<i>ming so‘m</i>	<i>2020- yil yanvar-sentabrga nisbatan, % hisobida</i>
Qashqadaryo viloyati	10 640,8	110,5	3 164,9	108,4
G‘uzor	369,9	100,7	1 766,5	98,5
Dehqonobod	263,1	98,1	1 742,2	96,2
Qamashi	638,5	101,0	2 306,6	99,2
Qarshi	428,9	104,2	1 681,9	101,8
Koson	1 039,2	110,0	3 545,4	107,6
Kitob	644,2	106,1	2 402,9	104,7
Mirishkor	243,6	100,9	1 988,6	98,9
Muborak	280,8	95,4	3 154,8	93,4
Nishon	403,8	101,9	2 573,4	99,7
Kasbi	370,3	102,9	1 839,6	100,9
Chiroqchi	1 057,0	112,1	2 491,2	109,2
Shahrisabz	336,5	98,9	1 495,7	97,7
Yakkabog‘	530,4	102,4	1 979,9	100,9
Qarshi sh.	3 181,5	118,6	11 346,3	116,8
Shahrisabz sh.	853,2	136,1	6 033,9	134,3

Yil boshidan viloyat bo‘yicha ulgurji savdo tovar aylanmasi 2 253,0 mlrd. so‘nni tashkil qildi va 2020- yilning shu davriga nisbatan 6,5 % ga o‘sish kuzatildi.

Ulgurji savdo tovar aylanmasida eng yuqori hajm kichik tadbirkorlik subyektlariga to‘g‘ri

kelib, mazkur hajm 2021- yil yanvar-sentabr oylari yakunlariga ko‘ra, 1 745,6 mlrd. so‘mni tashkil etdi va o‘tgan yilning shu davriga nisbatan 4,1 %ga kapaydi. Ushbu sektorning umumiy ulgurji savdo aylanmasidagi ulushi esa 77,5 %ni tashkil qilmoqda.

Qashqadaryo viloyatida hududlarning ulgurji savdo tovar aylanmasidagi ulushi, foizda



Yirik korxonalarining ulgurji savdo tovar aylanmasi 15,5 % ga o‘sib 507,4 mlrd. so‘mga yetdi va umumiy ulgurji savdo tovar aylanmasidagi ulushi esa 22,5 % ni tashkil qildi.

Ulgurji savdo tovar aylanmasi (2021- yil yanvar-sentabr)

	<i>mlrd. so‘m</i>	<i>2020- yil yanvar-sentabrga nisbatan, % hisobida</i>
Qashqadaryo viloyati	2 253,0	106,5
G‘uzor	61,9	101,6
Dehqonobod	24,3	20,9
Qamashi	7,9	19,8
Qarshi	147,2	72,6
Koson	97,9	125,4
Kitob	78,6	58,1
Mirishkor	1,9	5,4
Muborak	22,2	56,2
Nishon	20,8	47,4
Kasbi	85,1	2,4 m.
Chiroqchi	55,0	156,7
Shahrisabz	67,8	182,1
Yakkabog‘	63,5	88,9
Qarshi sh.	1 363,1	130,4
Shahrisabz sh.	155,7	111,4